

## PETRUSHKA (PETROSELINUM CRISPUM) O'SIMLIGINI DORIVOR BIOLOGIK FAOL MODDALARI VA EKSTRAKT OLISH TEXNOLOGIYASI

Fayziyeva Marjona Amrulloyevna

Sobirova Muqaddas Batirovna

Sattorova Madina Abduvaxob qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Jizzax filiali

**Annotatsiya:** Petrushka (*Petroselinum crispum*) shifobaxsh va dorivor o'simlik ekanligini barchaga yetkazishimiz va bu xususiyatlaridan to'g'ri foydalangan holda tibbiyotda va boshqa sohalarda kerakli mahsulotlar olishimiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** flavonoidlar, apinin, diosmin, naringenin, lyuteolin, apinenin glikozidlari, efir moyi, askorbin kislota.

Petrushka (*Petroselinum crispum*) - Soyabonguldoshlar oilasiga mansub bir yoki ikki yillik o't o'simliklar turkumi, sabzavot ekini. [1] Petrushka - bo'yi 100 sm ga qadar boradigan bir yillik yoki ikki yillik o'tsimon o'simlik. Ildizi duksimon, ba'zan ancha yog'onlashgan bo'ladi. Barglari - shaklan uchburchak taxlit, to'q yashil, ustki tomoni yaltiroq ildizyonni va poyasining pastki barglari uzun bandli. Gullari sarg'ish-yashil tusda, soyabonsimon murakkab to'pgullar hosil giladi. Mevalari - uzunligi 3mm cha keladigan kulrang-qo'ng'ir rangli, ikki urug'li. Iyun-iyulda gullaydi, mevalari iyul-avgustda yetiladi. Bu o'simlik O'rta Osiyoning hamma joylarida oshko'k tariqasida ko'p ekiladi. [1,2]

Biologik faol moddalari. Petrushka mevalarida 6 foizgacha efir moyi, 22 foizcha yogli moy, flavonoidlar (apinin, diosmin, naringenin, lyuteolin, apinenin glikozidlari) bor. Barglarida efir moyi flavonoidlar va askorbin kislota, gullari bilan ildizlarida esa flavonoidlar bo'ladi. [2]

Ishlatilishi. Xalq tabobatida petrushka urug'laridan siydir haydaydigan va terlatadigan vosita tariqasida foydalaniлади, ularni hayz buzilib, og'riq bo'lib turadigan mahallarda, prostata bezi va qovuq yallig'langan paytlarda buyuriladi. Yangi barglarini yanchib yoki paxtani barglari suviga hollab turib hasharotlar chaqgan joylarga qo'yiladi, badandagi sepkil va dog'larni yo'qotish uchun ishlatiladi. Sepkillarni yo'qotish uchun petrushka qaynatmasiga limon suvi aralashtirib, ertalab va kechqurun yuz yuviladi. Ibn Sino petrushka "bitib qolgan joylarni ochadi, odamni terlatib, og'riqlarni bosadi, o'smalar endi paydo bo'lib kelayotganida ularni yo'qotib yuboradi, nafas qiyinlashib, odam yo'talganida yordam beradi, jigar va taloq uchun foydalidir, siydir haydaydi va hayzni qo'zg'atadi, buyrak, qovuq va bachadonni tozalaydi" deb yozgan. Ibn Sino fikriga qaraganda, petrushka zaharlar kuchini qirqadigan xossalarga ega - ildizlaridan tayyorlangan qaynatma "dorilardan, qo'rg'oshindan o'lar darajada zaharlanishda davo bo'lib, naf beradi" Zamonaviy tabobatda petrushka mevalari tinktura ko'rinishida yoki yig'ma dorilar tarkibida buyrak va yurak kasalliklariga aloqador shishlarga qarshi kuchli siydir haydaydigan vosita tariqasida ishlatiladi. Petrushkada talaygina askorbinat kislota borligi va efir moyining me'da shirasi ajralishini kuchaytira olishi petrushkani gipoatsid

gastritlar, astenik holatlarda qo'llanishga imkon beradi. Siydk-tosh kasalligi, sistitlar, ovqat hazmining buzilishi, bachadondan qon ketishiga davo qilishda petrushkani ishlatib, yashigina natijalar olingan. Jigar kasalliklari, ovqat yaxshi hazm bo'lmasligi va qorin dam bo'lgan paytlarda petrushka damlamasi foyda beradi. Petrushka preparatlarining bachadon, qovuq va ichak muskullari kuchini oshirishi va peshobni ko'paytirishi hayvonlar ustidagi tajribalarda aniqlangan. [2]

Ekstrakt olish usuli. Ekstraksiyalash (lotincha: ajratayapman) — suyuq yoki qattiq moddalar aralashmasini maxsus (selektiv) erituvchi (ekstragenter)lar yordamida to'la yoki qisman ajratish. Petrushkadan ekstrak tayyorlashda etanoldan foydalanamiz. Petroselinum crispum yangi barglari yig'iladi. Yangi barglar uch marta distillangan suvda yuviladi va xona haroratida 24 soat davomida quritilishi uchun qoldiriladi. Keyin barglar skalpel bilan kesildi. Ekstrakt 20 g to'g'ralgan barglarni 80 g 60% (v/v) etanolga (EtOH) xona haroratida 48 soat davomida silkutuvchi inkubatorda qo'yish orqali olindi. Inkubatsiya oxirida suspenziya 0,45 pm Whatman membran filtri bilan filtrlangan va aylanuvchi bug'lantiruvchi yordamida quritildi. Olingan quruq ekstrakt tortildi va foiz hosili o'simlik materialining havoda quritilgan vazni sifatida ifodalandi. Namunalar keyingi tahlillarni o'tkazish vaqt kelgunga qadar 2-4°C haroratda saqlandi. [5]

Xulosa qilib aytganda, Petrushka (Petrushka crispum) o'simligi har tomonlama foydali. Uning foydali va shifobaxsh xususiyatlari juda ko'p. Petrushka o'simligi biologik faol moddalar ko'p bo'lganligi sababli dunyo sanoatida keng qo'llanilmoqda. Biologik faol moddalar sifatida flavonoidlar, vitaminlar, glikozidlar va boshqa ko'plab moddalar ishlab chiqaradi va to'playdi. Bu o'simliklarning ahamiyatini yanada oshiradi. Biologik faol moddalarni ko'p ishlab chiqaruvchi o'simliklarni topib, ularni to'g'ri amaliyotga tatbiq etib, asrab-avaylash juda muhimdir. Ekalogik muhitni hisobga olgan holatda toza va tabiiy dori preparatlaridan foydalanish kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.Ch.Bo'riyev, A.Abdullayev, Tomorqa sabzavotchiligi. T., 1987
2. M.A.Jo'rayeva Dorivor o'simliklar atlasi, Toshkent-2019
3. Xolmatov X.X. va boshqalar Ruscha-lotincha-o'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati, Toshkent, 1992.
4. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi darslik O'.Axmedov va boshqa. Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020.
5. Stefania Lamponi, Maria Camilla Barotto „Bioactivity of hydro-alcoholic extract of Petroselinum crispum” Longhua Chin Med 2020;3:16.